




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



THE SIGNIFICANCE OF THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION IN PROVIDING SOCIAL AND SPIRITUAL STABILITY IN UZBEKISTAN

Javlon Iymanov

associate professor (PhD)

"UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY" NOTM

Uzbekistan

E-mail: Iymanov81@umail.uz

ABOUT ARTICLE

Key words: social, spiritual, stability, international cooperation, region, partnership, equality, friendship, positive result.

Received: 20.10.24

Accepted: 22.10.24

Published: 24.10.24

Abstract: This article highlights the importance of the Shanghai Cooperation Organization in ensuring socio-spiritual stability in Uzbekistan, the initiatives put forward at the Summit in India in 2023 on the path of stability carried out to ensure socio-spiritual stability in Uzbekistan, and the measures planned in the Strategy of Uzbekistan-2030.

O'ZBEKİSTONDA İJTİMOİY-MA'NAVİY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA SHANHAY HAMKORLIK TASHKİLOTINING AHAMIYATI

Javlon Iymanov

dotsent (PhD)

"UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY" NOTM

O'zbekiston

E-mail: Iymanov81@umail.uz

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ijtimoiy, ma'naviy, barqarorlik, xalqaro hamkorlik, mintaqo, sheriklik, teng huquqlilik, do'stlik, manfaatli natija.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda Shanhay hamkorlik tashkilotining ahamiyati, 2023 yilda Hindistonda o'tkazilgan sammit va barqarorlik yo'lida ilgari surilgan tashabbuslar, O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar hamda "O'zbekiston-2030" Strategiyasida rejalashtirilgan chora-tadbirlar yoritilgan.

ЗНАЧЕНИЕ ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ И ДУХОВНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Жавлон Ийманов

доцент (*PhD*)

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY” NOTM

Узбекистан

E-mail: Iymanov81@umail.uz

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальное, духовное, стабильность, международное сотрудничество, регион, партнерство, равенство, дружба, положительный результат.

Аннотация: В данной статье освещается важность Шанхайской организации сотрудничества в обеспечении социально-духовной стабильности в Узбекистане, инициативы, выдвинутые на Саммите в Индии в 2023 году на пути стабильности, проводимая для обеспечения социально-духовной стабильности в Узбекистане, и меры, запланированные в Стратегии Узбекистана-2030.

Kirish (Introduction). 2001 yil 15 iyun kuni Xitoyning Shanhay shahrida Qozog‘iston, Xitoy, Qирг‘изистон, Rossiya, Tojikiston va O‘zbekiston davlat rahbarlari Shanhay hamkorlik tashkilotini tashkil etish to‘g‘risidagi Deklaratsiyani imzolash orqali yani xalqaro tashkilot paydo bo‘ldi. Ushbu yangi tashkilotning asosiy maqsadi XXI asrda siyosiy ko‘p qutblilik, iqtisodiy va axborot globallashuvining shakllanish jarayonlarining jadal rivojlanishi sharoitida ochilgan imkoniyatlardan yanada samarali foydalanishga, yangi muammolar va tahdidlarga qarshi turishga yordam berish maqsadida tashkil etildi. Bugungi kunga kelib SHHTga 9 ta doimiy a’zo, 3 ta kuzatuvchi va 6 ta muloqot bo‘yicha hamkorlar [1] faoliyat olib bormoqda. SHHT dunyodagi eng yirik mintaqaviy tashkilot hisoblanib, unga a’zo mamlakatlarning umumiyligi hududi 35 million kvadrat kilometrdan oshadi. Bu Yevroosiyo qit‘asi hududining 65 foizdan ortig‘i qo‘shilishini bildiradi. SHHT mamlakatlarining umumiyligi aholisi 3,5 milliard kishini tashkil etadi, bu - dunyo aholisining qariyb yarmidir. “SHHTning katta oilasi” uch qit‘a – Osiyo, Yevropa va Afrikani qamrab olgan. [2]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘zbekistonda ma’naviy barqaror muhitga oid ilk tadqiqotga O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, davlatimiz rivojlanishining yangi bosqichini boshlab bergan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekistonni barqaror va izchil rivojlantirishga oid konseptual g‘oyalari ilmiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sohaning rivojlanishida tadqiqotlar olib borgan R.Alimov, T.Jo‘rayev, U.Hasanov, E.Yusupov, M.M.Qahhorova, S.Otamuratov, A.Ochilidiyev, Sh.Patxutdinov, N.Safarova, M.Quronov, U.Saidov, B.Umarov, R.Samarov, V.Qo‘chqorov, N.Mamanazarov, A.Tashanov,

O.Musayev, Q.Nazarov, N.Nazarov, T.Maxmudovlarning O'zbeistonda millatlararo munosabatlari va ularning rivojlanish jarayonlari, milliy-ma'naviy merosni tiklanishi, ma'naviy barqarorlikni ta'minlash borasida Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro manfaatli aloqalari yoritilgan.

Shuningdek, M.Sh.Sharipov [3] Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikka bo'lgan tahdid va chaqiriqlarning oldini olishdagi Shanhay hamkorlik tashkilotining ahamiyatini siyosiy jihatdan o'rgangan. I.N.Bekmuratov [4] SHHTning institutlashish jarayonlari va taraqqiyot istiqbollari, tashkilotning mintaqaviy xafsizliklarni ta'minlashdagi imkoniyatlari va salohiyati haqida tadiqot olib borgan. A.N.Muxamedjanov [5] SHHTning shakllanishi va uning Janubiy va Markaziy Osiyo davlatlari bilan zamonaviy xalqaro munosabatlari tizimidagi rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Biz tomonimizdan esa SHHTning Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini o'rganish maqsad qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ilmiy maqolada tahlil va sintez, tizimli yondashuv, falsafiy-mantiqiy fikrlash, falsafiy tahlil, guruhash, ekspertlarni baholash va taqqoslash usullari ishlatilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 11.09.2023 -yilda imzolangan PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 1-ilova 1.5.-bandi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar" 38-maqсади "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash" [6] masalasi hamda O'zbekiston Prezidenti tomonidan 07.02.2017 yilda imzolangan PF-4947 -son Harakatlar strategiyasining "Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" nomli 5.2. bandida "O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish" [7] ga alohida urg'u berilganligi mavzu doirasida tadqiqotlar olib borishning dolzarbligini bildiradi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonimizda O'zbekiston ham huquqiy hamda amaliy tarafdan moslashib bormoqda. Buning uchun nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlari hamjihatlik bilan bir butunlikda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash uchun harakat qilishimizni taqozo etadi.

2023 yil 4 iyul kuni Hindiston raisligida SHHTning 23-Sammiti onlayn formatda bo'lib o'tdi. Unda ko'rilgan asosiy masalalar qatorida Eron Islom Respublikasining SHHTga to'laqonli a'zo bo'lishi va SHHTga a'zo davlat bo'lish maqomini olish bo'yicha Belorus Respublikasining majburiyatlari ko'rib chiqildi. Bu esa SHHT oilasining yil sayin ortiq borayotganligi va dunyo qo'lamida kengroq quloch yozayotganligini ko'rsatmoqda.

Ushbu sammitda so‘z olgan O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Afsuski, geosiyosiy keskinlik va mojarolarning kuchayishi kuzatilmoqda, global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga nisbatan yangi tahdid va xavf-xatarlar paydo bo‘lmoqda, ekologiya, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi sohalarida tahdidlar avj olmoqda. Shu munosabat bilan konstruktiv va ishonchli muloqotni yo‘lga qo‘yish o‘tkir zaruratga aylanib borayotgani o‘z-o‘zidan ayondir.” [8] –deya bu kabi masalalarni hal etishyu tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda hamda qaror qabul qilishdi Birlashgan Millatlar Tashkiloti markaziy o‘rinni egallashi lozimligini ta’kidlagan edi.

Shu bilan bиргаликда”мintaqa kun tartibidagi eng dolzarb masalalarni bartaraf etishda Shanhay hamkorlik tashkiloti yetakchi rolni saqlab qolishi va kuchaytirishi juda muhim” [9] еканligini ta’kidlab o‘tdi O‘zbekiston Prezidenti.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzasida, SHHT doirasida hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha 8 ta taklif bilan chiqdi. Xususan:

Birinchi. SHHTning yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va transchegaraviy sheriklik kodeksini ishlab chiqish;

Ikkinchi. Mintaqaviy savdo va sanoat-texnologik kooperatsiyani rivojlantirish uchun umumiy makonni shakllantirish;

Uchinchi. Transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqligiga doir yagona xaritani ishlab chiqish;

To‘rtinchi. “Yashil belbog” dasturi doirasida Mintaqaviy ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va “yashil” texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasini tayyorlash;

Beshinchi. Oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq xatarlar ortib borayotgani munosabati bilan Oziq ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti bilan bиргаликда joriy yilning sentyabr oyida O‘zbekistonda mazkur masala bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘tkazish;

Oltinchi. Samarqand shahridagi “Ipak yo‘li” xalqaro universitetida shu yilning oktyabr oyida bo‘lib o‘tadigan Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh assambleyasining yubiley sessiyasi doirasida SHHT turizm industriyasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazish;

Yettinchi. Faol madaniy almashinuvlar bo‘yicha yillik taqvimlarni shakllantirish amaliyotini joriy etish hamda “SHHT – ilg‘or g‘oyalar va kelajak tashabbuslari makoni” mavzusida yoshlar o‘rtasida muloqotni kengaytirish bo‘yicha tadbirlar dasturini tayyorlash;

Sakkizinchi. Mintaqaviy aksilterror tuzilma kengashining sayyor yig‘ilishlarini o‘tkazish amaliyotini davom ettirish. [10]

Yuqorida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar nafaqat mamlakatimiz, mintaqamiz, balki dunyo miyisosida ham tinchlik-totuvlik, iqtisodiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlash uchun xizmat qiladi.

2024 yilning 26 aprel kuni Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida Qozog‘iston raisligida Shanhay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar mudofaa vazirlarining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Qozog‘iston mudofaa vaziri, general-polkovnik Ruslan Jaqsiliqov ohib berdi. Uchrashuv mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashish, hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollarini muhokama qilish uchun maydon sifatidagi ahamiyatini alohida ta’kidladi.[11]

2024 yil 21 may kuni Qozog‘istonning Ostona shahrida Shanhay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari kengashi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda siyosiy, diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi ko‘p tomonlama hamkorlikka taalluqli bo‘lgan 22 ta qaror qabul qilindi. Shu bilan birgalikda. Belorus Respublikasining SHHTning to‘laqonli a’zosi bo‘lish uchun me’yoriy hujjatlarni rasmiylashtirish ishlarini yakunlash arafasida ekanligi, hamda Mo‘g‘iliston ham SHHTning to‘laqonli a’zosi bo‘lish uchun harakat qilayotganligi ham Shanhay Hamkorlik Tashkilotining safi kengayishiga va dunyo davlatlarini orasida nufuzi kundan-kunga ortib borayotganligini bildiradi.

2024 yilning 23 may kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi Baxtiyor Islomov raisligida Shanhay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar Oliy sudlari raislarining o‘n to‘qqizinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. SHHT umumiy manfaatlarni himoya qilishning samarali tizimi bo‘lib, unda yaxshi qo‘sniqchilik va do‘stlikni mustahkamlash, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minalashda muhim rol o‘ynamoqda. Shu sababli, Millat va chegara bilmas illat sanaladigan odam savdosiga qarshi kurashish doimiy ravishda dunyo hamjamiyati, shu jumladan SHHT davlatlari uchun dolzarb muammo ekanligi inobatga olinib, odam savdosi bilan bog‘liq jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish amaliyoti muhokama qilindi. Bu borada tizimli ravishda o‘zaro tajriba almashinuvi ahamiyatli ekani alohida qayd etildi. [12]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2023 yil 11 sentyabrdan PF-158-son bilan imzolangan “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi yaqin 7 yil uchun mo‘ljallangan strategiya bo‘lib, bu farmon nafaqat orqali O‘zbekistonning buyuk kelajagini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini hisoblanadi. Xususan, Strategiyaning “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” deb nomlangan birinchi ustuvor yo‘nalishining “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar” nomli 1.5. bandi 38-maqsadi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minalash” [13] ekanligi ham bu sohaga davlat darajasida e’tibor borilayotganligidan dalolat beradi. Xususan, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minalashb, maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish,

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish, ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar bilan jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish borasida 2030 yilga qadar chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Bu esa yurtimizda ma’naviyat sohasida faoliyat olib borayotgan olimlarning mamlakat taraqqiyotiga o‘z hisalarini qo‘sishi hamda Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlash yo‘lida munosib xizmat qilishlarini talab etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion / Recommendations). Yuqoridagiardan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun muhim bo‘lgan ma’naviy barqaror muhitni ta’minlash uchun tashqi siyosatimizda belgilangan ustuvor yo‘nalishlarda olib borilayotgan chora-tadbirarni yanada rivojlantirgan holda, Shanhay hamkorlik tashkiloti doirasida O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlash maqsadida tashkilotga a’zo davlatlar bilan soha bo‘yicha o‘zaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirishga harakat qilishimiz zarurdir.

Ma’naviy barqaror muhitni ta’minlash uchun mintaqalari o‘zaro hamkorlikni tarixiy birlikka, o‘zaro yaqin qo‘schnichilikka, diniy va dunyoviy bag‘rikenglikka asoslansagina istiqboli porloq bo‘ladi. [14]

Shanhay xamkorlik tashkiloti bugun halqaro tashkilotlar orasida o‘zining salmog‘i va ahamiyatini inobatga olgan holda nafaqat iqtisodiy, xavfsizlik sohalarida, ularga qo‘shib ma’naviy barqarorlik borasida ham hamkorlikni yanada rivojlantiranimizda nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikki erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Shanhay_hamkorlik_tashkiloti#Manbalar
2. Gaziyev F.Sh., Shanhay hamkorlik tashkiloti faoliyatining iqtisodiy jihat // Iqtisod va moliya, №11, 2011. - B.14.
3. Sharipov M.Sh., Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashda Shanhay hamkorlik tashkilotining ahamiyati. Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2007.
4. Berdimuratov I.N., Shanhay hamkorlik tashkilotining faoliyati va institutsiyalashish jarayoni. Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2006.
5. Muxamedjanov A.N. Shanhayskaya organizatsiya sotrudnichestva v sisteme sovremenix mejdunarodníx otnosheniy v Yujnoy i Sentralnoy Azii. Dissertation na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata politicheskix nauk. – Tashkent. 2010.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 11.09.2023 yilda imzolangan PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent: «Adolat», 2017. – B. 27.

8. <https://president.uz/uz/lists/view/6457>

9. <https://kun.uz/kr/news/2024/04/26/qozogistonda-shht-davlatlari-mudofaa-vazirlari-yigilishi-bolib-otmoqda>

10. <https://sud.uz/news-2024-05-23-1/>

11. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

12. Iymanov J.S. Markaziy Osiyodagi tarixiy va ma’naviy qadriyatlarning O‘zbekistonda ma’naviy barqaror muhitni ta’minlashdagi ro‘li. UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE. VOLUME 2, ISSUE 11, 16-bet.